

SHAXSNING SOG‘LIG‘IGA QARSHI JINOYATLARNING JINOIY HUQUQIY TAVSIFI VA KVALIFIKATSIYA QILISH MEZONLARI

Subanov Olimjon Suyarkul o‘g‘li,

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrası

katta o‘qituvchisi, dotsent.

Annotasiya. Mazkur maqolada shaxsning sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlarning huquqiy xususiyatlari, ularning tushunchasi va kvalifikatsiya qilish mezonlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Shaxsning sog‘lig‘i, badanga shikast yetkazish, og‘ir shikast, o‘rtacha og‘ir shikast, yengil shikast, sababiy bog‘lanish, sub‘ektiv tomon, ob‘ektiv tomon, qasd, ehtiyotsizlik, zaruriy mudofaa, jinoyat tarkibi, kvalifikatsiya, jinoiy javobgarlik, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.

Abstract. This article analyzes the legal characteristics of crimes directed against a person’s health, their concept, and the criteria for their qualification.

Keywords: Personal health, causing bodily injury, grievous bodily injury, moderate bodily injury, minor bodily injury, causal link, subjective aspect, objective aspect, intent, negligence, necessary defense, corpus delicti, qualification, criminal liability, Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida shaxsning sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlar bog‘liq huquqbuzarliklar tartibga solingan bo‘lib, ular shikastning og‘irlik darajasi, sodir etish usuli, oqibatlari va aybdorning sub‘ektiv munosabatiga ko‘ra turli toifalarga ajratiladi. Bunday normalarning mavjudligi shaxsning jismoniy daxlsizligini ta‘minlash, uning hayoti va sog‘lig‘ini huquqiy jixatdan muhofaza qilish, shuningdek jamiyatda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada shaxsning sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlarning mazmun-mohiyati, badanga shikast yetkazish tushunchasi, uning turlari, ob‘ektiv va sub‘ektiv tomonlari, yuridik tarkibiy belgilari hamda kvalifikatsiya qilishning asosiy qoidalari o‘rganilgan. Shu bois mazkur turdagi jinoyatlarni to‘g‘ri huquqiy baholash va amalda qo‘llashda muhim nazariy va amaliy asoslar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shaxsning sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar bilan bog‘liq jinoiy-huquqiy belgilarni o‘zlashtirib olishda avvalo, badanga shikast yetkazish tushunchasi muhim o‘rin tutadi.

Badanga shikast yetkazish deganda, tashqi muhit omillari ta’siri ostida jabrlanuvchining irodasiga qarshi, qonunga xilof ravishda inson organizmining anatomik yaxlitligi yoki a’zolarining fiziologik funksiyalarida buzilish namoyon bo‘lgan boshqa shaxsning sog‘lig‘iga zarar yetkazish tushuniladi.

Shaxsning sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar O‘zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismi I bo‘lim, II bobida o‘z aksini topgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish Sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo‘lgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish natijasida ko‘rish, so‘zlash, eshitish qobiliyatini yo‘qotish yoxud biron a’zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo‘qolishiga, ruhiy holatining buzilishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda buzilishiga, umumiy mehnat qobiliyatining o‘ttiz uch foizidan kam bo‘lmagan qismining doimiy yo‘qolishiga yoki homilaning tushishi yoxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishiga sabab bo‘lsa va ushbu Kodeksning 126¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmasa. (JK 104-m.).

Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish jinoyatlarida aybni og‘irlashtiruvchi holatlar: a) homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan; b) o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarish munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan; v) o‘ta shafqatsizlik bilan; g) ommaviy tartibsizliklar jarayonida; d) tamagirlik niyatida; ye) bezorilik oqibatida; j) millatlararo yoki irqiy adovat zahirida; z) diniy taassublik zahirida; i) inson a’zolarini va (yoki) to‘qimalarini olish maqsadida; k) bir guruh shaxslar tomonidan; l) qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ashyolarni ishlatib sodir etilgan bo‘lsa, JKning 104-moddasi ikkinchi qismi bilan baholanadi. Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish: a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan; b) takroran, xavfli residivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 97-moddasida nazarda tutilgan tarzda qasddan odam o‘ldirgan shaxs tomonidan; v) o‘ta xavfli residivist tomonidan; g) uyushgan guruh a’zosi tomonidan yoki shu guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa; d) jabrlanuvchining o‘lishiga sabab bo‘lsa, JKning 104-moddasi uchinchi qismi bilan baholanadi.

Badanga shikast yetkazish jinoyatining ob’ekti – boshqa shaxsning sog‘lig‘i. Bu o‘rinda boshqa shaxs salomatligining holati va shaxsiy xususiyatlarining ahamiyati yo‘q. Boshqa shaxsning sog‘lig‘iga zarar yetkazish hodisasini aniqlashda

uning badanga shikast yetgan vaqtidagi salomatligining holati inobatga olinadi. Shaxs o'zining sog'lig'iga ziyon yetkazganida (o'zining biror a'zosini jarohatlaganida), mazkur harakatlar faqat JKda ko'zda tutilgan mustaqil jinoyatni vujudga keltirsa, masalan, harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash (JK 225-m. 2-q. «a» b.), o'zining biror a'zosini mayib qilish bilan yoki boshqa usul bilan harbiy xizmatdan bo'yin tovlash (JK 290-m.) va ba'zi boshqa holatlarda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda o'z sog'lig'iga zarar yetkazish mazkur jinoyatlarning zaruriy yoki kvalifikatsiya qilish belgisi sifatidagi maqomga ega bo'ladi, shu boisdan bunday qilmishlar boshqa odamning sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyat kabi kvalifikatsiya qilinmaydi.

Agar shaxsning sog'lig'iga ziyon yetkazish uning roziligi bilan boshqa kishi tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u holda aybdorning qilmishi jinoyatlar majmuiga ko'ra, badanga tegishli og'irlikda shikast yetkazish hamda o'z sog'lig'iga zarar yetkazishga rozilik bergan kishining sodir etgan jinoyatida ishtirokchi kabi kvalifikatsiya qilinadi.

Badanga quyidagi vositalar orqali shikast yetkazilishi mumkin: 1) jismoniy ta'sir (mexanik, termik (issiqlik), elektr toki va boshqalar); 2) badanga kimyoviy va biologik faol vositalar bilan ta'sir etish; 3) ruhiy ta'sir orqali.

Agar shaxs noqonuniy tarzda o'qotar qurolini yasagan yoki qo'lga kiritgan bo'lsa-yu, boshqa odamning badaniga shu quoldan shikast yetkazsa, u holda bunday qilmish badanga tegishli darajadagi og'irlikda shikast yetkazish va qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish majmui bilan baholanishi zarur (JK 248-m.).

Badanga shikast yetkazishni tugallangan jinoyat deb topish uchun qonunda aniq ko'rsatilgan muayyan oqibatlarining boshlanishi zarur (mehnatga layoqatlilikni yo'qotish, a'zoni ishdan chiqarish yoki uni bajaradigan vazifalaridan mahrum etish, homiladorlikning buzilishi va boshqalar). Ayni paytda inson badanidagi to'qimalarning anatomik yaxlitligi buzilishigina emas, balki sog'liqqa yetkazilgan muayyan zararni badanga shikast yetkazishning jinoiy oqibatlari sifatida hisoblash kerak.

Javobgarlikning muqarrar sharti – sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish va boshlangan jinoiy oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlashdir. Sababiy bog'lanishning yo'qligi holatida boshlangan oqibatlar sub'ektni aybdor deb topishga monelik qiladi.

Sababiy bog'lanish mavjudligi masalasini hal qilganda jabrlanuvchi badanining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur (kasallik, tug'ma

yetishmovchilik va boshqalar). Mazkur xususiyatlarning mavjudligi ijtimoiy xavfli qilmish tufayli boshlangan oqibatlar mohiyatiga ta'sir etishi mumkin. Bunday holatlarda ijtimoiy xavfli qilmish natijasida qanday aniq oqibatlar boshlanganini va ularning jabrlanuvchi badanining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda og'irlashib borgan-bormaganligini belgilash zarur. Agar mazkur oqibatlar aybdorga ma'lum bo'lsa-yu, u o'z sodir etgan qilmishining pirovard natijaga ta'sir etishini anglasa, amalda keltirilgan zarar unga ayb sifatida yuklatilishi shart. Basharti, bunday vaziyatlarni aybdor anglamagan bo'lsa, u boshlangan oqibatlar uchun javobgarlikka tortilmaydi.

Sub'ektiv tomondan jinoyat aybning qasd shakliga binoan ta'riflanadi va muayyan holatlarga ko'ra to'g'ri va egri qasd bilan badanga shikast yetkazilgan bo'lishi mumkin. Aniq bo'lmagan qasdning mavjudligi holatida aybdor amalda kelib chiqqan oqibatlar uchun javobgarlikka tortiladi.

Aybdorning boshqa bir shaxsning sog'lig'iga zarar yetkazish niyati aniqlanganda va amalda kam darajadagi zarar yetkazilganda sub'ektning harakati jabrlanuvchining sog'lig'iga qaratilgan qasdga ko'ra, zarar yetkazishga qaratilgan suiqasd qilganlik kabi kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat qonunida badanga og'ir shikast yetkazish belgilarining to'liq ro'yxati keltirilgan, ulardan birining mavjudligi jarohatni og'ir deb topish uchun asos bo'ladi. Ular: 1) shikast yetkazilayotgan lahzada hayotga xavflilik; 2) ko'rish qobiliyatini yo'qotish; 3) nutq, gapirish layoqatini yo'qotish; 4) eshitish qobiliyatidan mahrum etish; 5) biror-bir a'zoni yo'qotish yoki a'zoning bajaradigan vazifalarini to'la bajara olmay qolishi; 6) ruhiy kasalga chalinish; 7) o'ttiz uch foizdan yuqori bo'lgan umumiy mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotish bilan bog'liq sog'liqqa shikast yetkazish; 8) homilani tushishi; 9) badanni tuzatib bo'lmas darajada xunuk-lashtirish kabililar.

Agar badanga shikast yetkazish u sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo'lsa, badanga og'ir shikast yetkazish toifasiga mansub bo'ladi. Badanga yetkazilgan bunday shikast hayot uchun xavfli bo'lib, u tibbiy aralashuvsiz o'z holicha kechgan hollarda jabrlanuvchining o'limiga olib kelishi mumkin bo'ladi.

Amalda kelib chiqqan oqibatlardan qat'i nazar, yetkazilgan shikastning hayot uchun xavfliligi uning shikast yetkazish vaqtidagi holatiga ko'ra aniqlanadi. Hayot uchun xavfli shikast yetkazishlarning to'liq ro'yxati «Badanga shikast yetkazish og'irligi darajasini aniqlashga oid sud tibbiyot qoidolari»da belgilangan.

Shikast yetkazish vaqtida hayot uchun xavfli bo'lgan shikastlarni qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilishdan ajratish kerak. Badanga hayot uchun xavfli

shikast yetkazishda aybdorning jabrlanuvchining o‘limiga zomin bo‘lishini anglab yetishi bilan birga, mazkur oqibatlar boshlanishini istagani to‘g‘ri qasd bilan harakat qilish holatlarida odam o‘ldirishga suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Badanga hayot uchun xavfli ravishda shikast yetkazish bilan ongli ravishda jabrlanuvchining o‘limiga yo‘l qo‘ygan holatlarda aybdorning qilmishi JK 104-moddasining birinchi qismiga ko‘ra baholanishi lozim.

Ko‘rish qobiliyatini yo‘qotish bu ikkala ko‘zning doimiy ojizligi bo‘lib, unda ko‘rish qobiliyati ikki metr va undan ham yaqin masofada barmoq bilan sanash darajasida pasayadi (ko‘rish quvvati 0,04 va undan ham kam bo‘ladi). Bir ko‘zning ko‘rish qobiliyatini yo‘qotishi mehnat qobiliyatining uchdan bir qismini doimiy yo‘qotish belgisi bilan badanga og‘ir shikast yetkazish toifasidagi jinoyatlarga kiradi. Bir ko‘zni yo‘qotish – a‘zoni yo‘qotish belgisiga ko‘ra, badanga og‘ir shikast yetkazish qilmishiga taalluqlidir.

So‘zlash qobiliyatini yo‘qotish – jabrlanuvchining o‘z fikrlarini boshqalarga tushunarli tovushlar vositasida ifodalash imkoniyatidan mahrum bo‘lishidir. Tilni yo‘qotish a‘zoni yo‘qotish alomatiga ko‘ra badanga og‘ir shikast yetkazish qilmishiga taalluqlidir.

Eshitish qobiliyatini yo‘qotish – to‘la karlik yoki jabrlanuvchi qulog‘idan 3–5 sm masofadagi so‘zlashuvni eshita olmaslikdek tuzatib bo‘lmas holat. Bir quloqning eshitish qobiliyatini yo‘qotishi mehnat qobiliyatining uchdan bir qismini doimiy yo‘qotganlik belgisiga ko‘ra badanga og‘ir shikast yetkazishga mansubdir.

Agar yetkazilgan shikast natijasida jabrlanuvchining eshitish qobiliyati saqlansa-yu, uning quloq suprasi olib tashlansa, aybdorning qilmishlari badanga og‘ir tuzatib bo‘lmaydigan xunuklikni vujudga keltirish belgisiga oid badanga og‘ir shikast yetkazish deb kvalifikatsiya qilinadi.

Biron a‘zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyatining tamoman yo‘qolishi – shaxsning hayot faoliyatini ta‘minlaydigan a‘zolaridan (ichki, tashqi) birortasini, jumladan juft a‘zolarini ham ularning o‘zlariga xos vazifalarni bajarishdan mahrum etishdir. Ko‘rish, eshitish, nutq qobiliyatini yo‘qotish bilan birga, mazkur belgilarga qo‘l yoki oyoqning ishlab chiqarish qobiliyatining yo‘qotishga olib keladigan qilmishlar ham taalluqlidir.

Qo‘l yoki oyoqni yo‘qotish deganda, mazkur a‘zolarining gavdadan butunlay ajralib qolish yoki bajarib turadigan vazifalaridan mahrum bo‘lishi tushunilib, bunday hollarda jabrlanuvchi mazkur a‘zolaridan foydalanish imkoniyatini yo‘qotadi (oyoqni ko‘tarib turish harakatlanish qobiliyatini yo‘qotadi, qo‘l harakatsiz bo‘lib qoladi va hokazo). Qo‘l yoki oyoqni tirsak yoki tizzadan kesib

tashlash qo‘l yoki oyoqni yo‘qotish deb topiladi. Boshqa barcha holatlarda a‘zolarning bo‘lagini yo‘qotish kabi baholanadi va ular mehnat layoqatini yo‘qotishni u yoki bu darajada doimiy yo‘qolishi alomati kabi baholanishi lozim.

Ishlab chiqarish qobiliyatini yo‘qotish deganda, yaqinlashish, urug‘latish, pusht oldirish yoki bola tug‘ish layoqatidan mahrum bo‘lish tushuniladi. Basharti, tashqi jinsiy a‘zolarning shikastlanishi natijasida normal yaqinlashish holati yo‘qolib qolsa yoki ayol bachadoni tuxumdoni yoki ichagining jarohatlanishi tufayli pusht olish, homilani normal ko‘tarib yurish va tug‘ish imkoniyatidan mahrum bo‘lsa, ishlab chiqarish qobiliyatining yo‘qotish alomatiga muvofiq, badanga yetkazilgan shikast og‘ir deb topiladi.

Erkaklarda ishlab chiqarish qobiliyatini yo‘qotish mustaqil ravishda urug‘latish qobiliyatini yo‘qotishni ifodalaydi.

Badanga shikast yetkazish natijasida shaxsning atrofidagi voqelikni to‘g‘ri idrok etishi va o‘z xulq-atvorini idora qilishiga muhim ta’sir etadigan normal ruhiy faoliyatning buzilishida namoyon bo‘ladigan ruhiy kasallik boshlanganida, bunday qilmish badanga og‘ir shikast yetkazish deb topiladi.

2. Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (JK 105-m. 1-q.) sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo‘lmagan va JKning 104-moddasida nazarda tutilgan oqibatlariga olib kelmagan, lekin sog‘lig‘ining uzoq vaqt, ya’ni kamida yigirma bir kun, ammo to‘rt oydan ko‘p bo‘lmagan davrda yomonlashuviga yoki umumiy mehnat qobiliyatining o‘n foizidan o‘ttiz uch foizigacha yo‘qolishiga sabab bo‘lgan shikast yetkazishdir.

Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazishning og‘irlashti-ruvchi belgilari quyidagilar: a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan; b) homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan; v) o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan; g) o‘ta shafqatsizlik bilan; d) ommaviy tartibsizliklar jarayonida; ye) tamagirlik niyatida; j) millatlararo yoki irqiy adovat zamirida; z) diniy taassublar zamirida; i) bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a‘zosi tomonidan yoxud shu guruh manfaatlarini ko‘zlab; k) takroran, xavfli residivist yoki ilgari JKning 104-moddasida nazarda tutilgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish jinoyatini sodir etgan yoxud JKning 97-moddasida nazarda tutilgan qasddan odam o‘ldirish jinoyatini sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilishi.

3. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish deb, jabrlanuvchi tomonidan qilingan g‘ayriqonuniy zo‘rluk yoki og‘ir haqorat, shuningdek aybdorning yoki uning yaqin kishisining o‘limiga

yoki sogʻligʻiga ziyon yetkazilishiga sabab boʻlgan yoxud sabab boʻlishi mumkin boʻlgan boshqa gʻayriqonuniy harakatlar tufayli toʻsatdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga ogʻir yoki oʻrtacha ogʻir shikast yetkazish tushuniladi (JK 106-m.).

4. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga ogʻir shikast yetkazish harakatlari JKning 107-moddasiga koʻra baholanadi.

5. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga ogʻir shikast yetkazish holatlari JKning 108-moddasiga binoan huquqiy baholanadi. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga ogʻir shikast yetkazish jinoyatining obʻekti – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning sogʻligʻi. Obʻektiv tomondan – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga ogʻir shikast yetkazishda namoyon boʻladi. Subʻekti – 16 yoshga toʻlgan, aqli raso jismoniy shaxsdir, yaʼni jabrlanuvchi, hokimiyat vakili yoki oʻz fuqarolik burchini bajarayotgan shaxs boʻladi. Subʻektiv tomondan – toʻgʻri yoki egri qasddan sodir etiladi.

6. Qasddan badanga yengil shikast yetkazish bu sogʻliqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq boʻlmagan muddatga yoʻqolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish. Oʻsha harakatlar uchun maʼmuriy jazo qoʻllanilganidan keyin sodir etilgan boʻlsa, qasddan badanga yengil shikast yetkazish deb topiladi (JK 109-m. 1-q.).

Sogʻliqni qisqa vaqt, yaʼni olti kundan ortiq, ammo yigirma bir kundan koʻp boʻlmagan muddatga yomonlashuviga yoki umumiy meh-nat qobiliyatining uncha uzoq boʻlmagan muddatga yoʻqotilishiga sabab boʻlgan qasddan badanga yengil shikast yetkazish JKning 109-moddasi ikkinchi qismiga binoan kvalifikatsiya qilinadi.

7. Qiynash – bu muttasil ravishda doʻpposlash yoki boshqacha harakatlar bilan azob berishdir, agar JKning 104, 105-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqarmagan boʻlsa, qiynash jinoyati deb baholanadi (JK 110-m. 1-q.). Oʻsha harakatlar: a) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan; b) homiladorligi aybdorga ayon boʻlgan ayolga nisbatan; v)ojiz ahvoldaligi aybdorga ayon boʻlgan shaxsga nisbatan sodir etilgan boʻlsa, JKning 110-moddasining ikkinchi qismi bilan huquqiy baholanadi.

8. Ehtiyotsizlik orqasida badanga oʻrtacha ogʻir yoki ogʻir shikast yetkazish oʻziga oʻzi ishonish yoki jinoiy beparvolik orqasidan sodir etilgan jinoiy qilmishdir.

Ehtiyotsizlik orqasida badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish esa JKning 111-moddasi birinchi qismi bilan baholanadigan qilmishdir. Ehtiyotsizlik orqasida badanga og‘ir shikast yetkazish jinoyati JKning 111-moddasi ikkinchi qismi bilan baholanadi. Ehtiyotsizlik orqasida ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilsa, JKning 111-moddasi uchinchi qismiga asosan huquqiy baholanadi.

Shaxsning sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar jamiyatda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadigan huquqbuzarliklar turkumi hisoblanadi. Jinoyat qonuni badanga shikast yetkazish bilan bog‘liq qilmishlarni og‘irlik darajasi, sodir etish sharoiti va aybdorning niyatiga ko‘ra aniq turlarga ajratib, har birining huquqiy oqibatlarini belgilab bergan. Bu esa amaliyotda jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish, javobgarlikni adolatli qo‘llash va jabrlanuvchilarning huquqlarini samarali himoya qilish imkonini beradi.

Badanga shikast yetkazishning og‘ir, o‘rtacha og‘ir va yengil shakllarining belgilari, sababiy bog‘lanishni aniqlash, aybdorning sub‘ektiv munosabatini baholash hamda kvalifikatsiyalovchi holatlarni belgilovchi me‘yorlar shaxs salomatligini himoya qilishda muhim nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, zaruriy mudofaa, qiynash, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan qilmishlar kabi alohida vaziyatlarda jinoyat tarkibini to‘g‘ri baholash — huquqni qo‘llash amaliyotida adolatni ta‘minlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shaxs sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar tartibga solingan huquqiy normalar faqat jazolashga emas, balki profilaktika, ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash va fuqarolarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishga qaratilgan kompleks mexanizm sifatida xizmat qiladi. Badanga shikast yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlarni chuqur o‘rganish va ularni to‘g‘ri huquqiy baholash mamlakat huquqiy tizimining mustahkamlanishi va inson huquqlarining ta‘minlanishida muhim omil bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 2025
3. Jinoyat huquqi Umumiy qism. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D. 2023
4. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Rustamboev M. H. 2020
5. Jinoyat huquqi Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Rustamboev M. H.